

**O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
QO'LYOZMALAR FONDI VA U YERDA SAQLANAYOTGAN SARF
ILMIGA OID MANBALAR**

Abduvaliyeva Komila

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.09.2025

Revised: 29.09.2025

Accepted: 30.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

Uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi, uning yuksak madaniyati, qadriyatlari, boy ilmiy merosi butun jahonning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va kelmoqda. O'zR FA Sharqshunoslik institutining noyob qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan ulkan xazina ham shu jumladandir. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi dunyodagi eng mashhur va boy fondlardan biridir. U yerda saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar o'tmishdagi Sharq islom olamining qariyb ming yillik tarixini o'z ichiga olgan. Nafaqat O'zbekiston olimlari, balki butun dunyo olimlari ham mazkur qo'lyozmalar fondidan foydalanib, o'tmish tarixini va madaniyatini yoritadilar.

Bu noyob fondga 25.977 jild qo'lyozma asarlar mavjud bo'lib, ular o'tmishdagi fanlarning deyarli hammasini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, 39.107 jild toshbosma va

bosma asarlar ham saqlanmoqda. Bundan tashqari, 5000 dan ortiq turli hujjatlar ham bu fondan o'rin olgan.²²

Shuningdek arab tili grammatikasiga oid manbalar ham ushbu fondda anchaginani tashkil etadi. Arab tili grammatikasini o'rganish yurtimiz ilm-fan rivoji va tarixidan dalolat beruvchi buyuk merosimizni o'rganishda muhim omil hisoblanadi. Chunki qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan manbalarining aksari arab tilida yozilgan. Arab tili grammatikasi asosini sarf va nahv ilmlari tashkil etadi va balog'at, fasohat kabi ilmlar ularni boyitadi. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida turli sohalarga oid manbalar juda ko'p bo'lib, arab tili sarf va nahv ilmlari ham shu jumladandir.

Sarf ilmi arab tilining eng muhim bo'lagi bo'lib, u tilning morfologiya bo'limini izohlaydi. Sarf ilmida kalimalar, ularning turlari, vaznlari, ulardan turli ishtiyoqlar olish, ishtiyoqlarning ma'no o'zgarishlari kabilar, hamda fe'llar, ularning turli zamonlarda tuslanishi va o'zgarishlari kabilar o'rganiladi.

Quyida O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan sarf ilmiga oid manbalar haqida ma'lumot beriladi.²³

Fondagi sarf ilmiga oid manbalarni ikki turga ajratish mumkin.

1-tur: Ko'p nusxali manbalar

2-tur: Kam nusxali manbalar

O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi sarf ilmiga oid qisqa tavsifi yaratilgan ko'p nusxali manbalar ja'mi o'n asar bo'lib, ular besh asar va ularga yozilgan sharhlardir.

1. Jamoliddin abu Amr Usmon ibn Umar ibn Hojib qalamiga oid "Shofiya fi-t-tasrif" asari. Ushbu muallif nahv ilmida ilohiy kitob deb ta'riflangan "Kofiya fi-n-nahv" asarining ham muallifidir. "Shofiya" asari ham sarf ilmida yuqori o'rinda turuvchi manbalardandir. Fondga ushbu asarning to'qqiz nusxasi mavjud bo'lib, asarning yozilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. Ammo muallifning vafot etgan yili hijriy 646 yil ekanligi barcha manbalarda ko'rsatilgan. Asar turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko'chirilgan. 5317 inventar raqamli manba kotib Mirxodixo'ja Buxoriy tomonidan nasta'liq yozuvida ko'chirilgan va ko'chirilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. 4884/I inventar raqamli manba Abdulloh ibn Muhammadulloh huri tomonidan hijriy 735 milodiy 1335 yilda nasx yozuvida ko'chirilgan. "Shofiya" nusxalari ichida eng to'lig'i 11694 inventar raqamli manba bo'lib, u 182 varaqdan

²² Hasaniy.M, Habibullayev.A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. –T.: "ToshDSHI", 2012. –B.64.

²³ Ushbu ma'lumotlar O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondidagi sohaga oid kartchkalardan foydalanib taqdim etildi.

iborat. Hijriy 836 milodiy 1432 yili nasx yozuvida yozilgan. Ushbu nusxa “Shofiya” nusxalarining davr bo’yicha eng yangisidir. Eng toto’liq nusxa esa 6649/I inventar raqamli manba bo’lib, 65 varaqdan iborat, suls yozuvida yozilgan. Asarning avvali va oxiri suqutli ya’ni to’liq emas. “Shofiya” nusxalarining to’rttasi nasta’liq (5317, 4144/I, 9267, 6452/IX), ikkitasi nasx (4884/I, 4072) va bittasi esa suls (6649/I) yozuvida yozilgan. Shofiya” nusxalarining beshtasi majmua asarlar bo’lib, qolganlari yakka shakldagi asarlardir.

2. “Shofiya” asariga yozilgan sharhlar.

“Shofiya” asariga yozilgan sharhlarning o’n turi fondida saqlanmoqda. Ushbu sharhlarni ham o’z o’rnida uch turga ajratish mumkin.

1. Ahmad ibn Hasan Jorbardiy qalamida mansub sharh. “Shofiya” asariga yozilgan sharhlarning beshtasi ushbu asar hissasiga to’g’ri keladi. Asar turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko’chirilgan. 9267/II inventar raqamli manba Muhammad ibn Muhammad ibn al-Bag’dodiy tomonidan hijriy 778 yili nasx xatida ko’chirilgan. 5821 inventar raqamli manba esa Malik Ahmad ibn Muhammad husayn tomonidan hijriy 1018 yili nasts’liq xatida ko’zhirilgan. Jorbordiy sharhlari ichida eng to’lig’i 9267/II inventar raqamli manba bo’lib, 204 varag’dan iborat. Ushbu sharhlarning uchtasi nasta’liq, bittasi esa nasx yozuvida yozilgan. Ular ichida ikkitasi majmua, qolganlari esa yakka asarlardir.

2. “Shofiya” asariga yozilgan sharhlarning yana biri Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Naysaburiy qalamiga mansub. Ushbu asarning uch nusxasi fondida saqlanmoqda. Ulardan ikkitasi yakka, bittasi esa majmua shaklidagi asarlardir. 5826, 8065 inventar raqamli manbalar nasx xatida yozilgan. Asarning yozilish yili ma’lum emas. Har uchchala nusxa ham yirik hajmli bo’lib, 5826 inventar raqamli manba 218, 8065 inventar raqamlisi esa 145, 4850/IV inventar raqamlisi esa 130 varag’dan iborat.

3. Sayyid Abdulloh ibn Muhammad Ibn Ahmad al-Husayniy qalamiga mansub shrhi shofiya ikki nusxada bo’lib, ikkisi ham nasta’liq yozuvida yozilgan va yakka shakldagi asarlardir. 4618 inventar raqamli nusxa kotib Muhammad ibn Mustafu Pahlavonzoda tomonidan hijriy 1061 yili ko’chirilgan. 176 varag’dan iborat. Ikkinchi nusxaning esa kotibi noma’lum bo’lib, 1260 yili ko’chirilgan, 149 varag’dan iborat.

3. Ibrohim ibn Ahmad al-Vahhob az-Zanjoniya qalamiga mansub “Tasrifi Zanjoniya” asari bo’lib, fondida uning o’ttiz to’rt nusxasi saqlanmoqda. Asarning yozilgan yili haqida hech qanday ma’lumotlar yo’q. Faqatgina 8334/XIII, 9558/III, 6614/XV inventar raqamli nusxalarda muallif hijriy 655 yilda vafot etganligi haqida ma’lumotlar bor. Asar nusxalarining deyarli barchasi notamom va nuqsonli ekanligi sababli asar kotiblari haqida ham ma’lumotlar kam uchramaydi. Sanoqli nusxalardagina kotiblarining ismlari keltirilgan.

5213/V inventar raqamli nusxa kotib Sayyid Lubobiy, 6547/XXVIII raqamlisi esa Mir Zokir tomonidan ko'chirilgan. Asarning deyarli barcha nusxalari hijriy XIII asrda ko'chirilgan. Asarning ikki nusxasidan boshqa barcha nusxalari nasta'liq xatida yozilgan. Asarning bir nusxasidan boshqa barchasi majmua shaklidir. Ayrim majmualar 25 hatto 28 asardan iborat. Ushbu asarning aksar nusxalari yirik majmualar ichida bo'lganligi sababli asar juda kichik hajmlidir. Uning eng to'lig'i 11842/I inventar raqamli manba bo'lib, 59 varag'dan iborat. Uning ham oxiri suqutli. 7185/V inventar raqamli manba esa eng kichik hajmli bo'lib 4 varag'dan iborat. Hijriy 1308 yili kotib Muhammad Karim ibn Muhammad Vafo tomonidan ko'chirilgan.

4. "Tasrifi Zanjoni" asariga yozilgan sharhlar.

Fondga ushbu sharhlarning o'n olti nusxasi saqlanmoqda. Ulardan o'n ikkitasi Mas'ud ibn Umar Taftazoniy qalamiga mansub. 8112/III va 6539/IX inventar raqamli manbalarda asar hijriy 738 yili yozilganligi haqida ma'lumotlar bor. Asar nusxalari turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko'chirilgan. Ko'chirilish yiliga ko'ra eng qadimiysi 8332/IV inventar raqamli manba bo'lib, hijriy 996 yili nasta'liq xatida ko'chirilgan. Kotibi noma'lum. Eng yangi nusxa esa 7875/V inventar raqamli manba bo'lib, kotib Muhammad Bo'zo'rgxo'ja tomonidan hijriy 1290 yili ko'chirilgan. 11692 va 10356/IV inventar raqamli manbalardan boshqalari nasta'liq xatida, bu ikkisi esa nasx xatida ko'chirilgan. Manbalar ichida 11692 inventar raqamli manba eng tolig'i bo'lib, 176 varag'dan iborat, kotib G'ulom Rasul tomonidan ko'chirilgan. 7875/V inventar raqamli manba esa eng kam hajmlisi bo'lib, 38 varag'dan iborat.

Shuningdek fondga "Tasrifi Zanjoni" asariga yozilgan sharhlardan Fathulloh ash-Shabroniy qalamiga mansub 5 varag'dan iborat, nasta'liq xatida ko'chirilgan 2541/IV inventar raqamli manba ham saqlanmoqda.

10685/VII inventar raqamli manba esa Muhammad ibn Qosim ibn Yusuf al-Husayn qalamiga mansub, 24 varag'dan iborat, fors tilida yozilgan sharhi Zanjoni ham saqlanmoqda.

8730/XVI, 6848 inventar raqamli sharhlarning mualliflari noma'lum.

5. Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy qalamiga mansub "Tasarrufi Zamaxshariy" asarining fondga yeti nusxasi saqlanmoqda. Asarning yozilgan yili noma'lum. Yetti nusxaning barchasi majmua shaklidagi asarlar bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan. Kotiblari haqida ma'lumotlar yo'q. 11743/II inventar raqamli manba hijriy 1254, milodiy 1838, 11920/II inventar raqamlisi esa hijriy 1266, milodiy 1849 yillarda ko'chirilgan. Asarning

eng to'lig'i 11920/II inventar raqamli manba bo'lib, 64 varag'dan iborat. Eng kam hajmlisi esa 12214/V inventar raqamli manba bo'lib, 2 varag'dan iborat.

6. "Tasarrufiti Zamaxshariy" asariga yozilgan sharhlar.

"Sarfi Zamaxshariy"ning fondida uch sharhi bo'lib, barchasining mualliflari noma'lum. Barcha nusxalari majmua shaklida va nasta'liq xatida yozilgan. 10685/IV inventar raqamli manba hijriy 1296, milodiy 1878 yili ko'chirilgan. Xuddi shu asardagi 10685/VI inventar raqamli manba ham sharhi Zamaxshariy bo'lib, uni Ismatulloh ibn Mahmud al-Buxoriy ko'chirganligi haqida ma'lumotlar bor. 10514/I inventar raqamli manba 37 varag'dan, qolganlari esa 24 varag'dan iborat.

7. Muhammad ibn Abi Qosim al-Ma'zi qalamiga mansub, "Al-Ma'zi fi-t-tasrif" asarining fondida o'ttiz to'qqiz nixsasi saqlanmoqda. Asarning yozilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. Asar turli kotiblar tomonidan turli davrlarda ko'chirilgan. Eng qadimiy nusxasi 6547/XXIX inventar raqamli manba bo'lib, kotib Mirzogar ibn Mirsharif tomonidan hijriy 1213 yili nasta'liq xatida ko'chirilgan. Eng yangi nusxasi esa 12147/X inventar raqamli manba bo'lib, hijriy 1312 yili nasta'liq xatida ko'chirilgan. Kotibi noma'lum. Asarning ikki 6050/III va 3276/V inventar raqamli nusxalaridan boshqalari nasta'liq xatida, bu ikkisi esa nasx xatida yozilgan. Asarning barcha nusxalari majmua ichida bo'lganligi sababli aksar qismi notamom. Eng to'liq nusxasi 4081/VII inventar raqamli manba bo'lib, kotib Mirzo Niyoz Muhammad tomonidan hijriy 1255 yili ko'chirilgan, 101 varag'dan iborat. Eng kam hajmlisi esa 10470/V inventar raqamli manba bo'lib, 2 varag'dan iborat. Kotibi noma'lum. Asardan parcha xolos.

8. "Al-Ma'zi fi-t-tasrif" asariga yozilgan sharhlar.

Fondida "Al-Ma'zi fi-t-tasrif" asariga yozilgan o'n uchta sharh mavjud bo'lib, ulardan ikkitasi Abdulloh ibn Oq Muhammad qalamiga mansub. 10535/VII va 10703/III inventar raqamlari ostida saqlanadi. Har ikkisi ham hijriy XIII asrda nasta'liq xatida ko'chirilgan. Kotiblari noma'lum. 79 va 69 varag'dan iborat.

Sharhlarning uchasi esa "Risolai Hisomiya" deb nomlanib, 6930/IV, 9558/V va 5669/III inventar raqamlari ostida saqlanadi. Kotiblari noma'lum.

Qolgan sharhlarning esa mualliflari noma'lum.

9. Ahmad ibn Ali ibn Mas'ud qalamiga mansub "Miroh ul-Arvoh" asarining fondida o'n nusxasi mavjud. Yozilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. Eng qadimiy nusxasi 7738/IV inventar raqamli manba bo'lib, hijriy 1251 yilda nasta'liq xatida yozilgan. Eng yangisi esa 6481/VII inventar raqamli manba bo'lib, hijriy 1300 yilda nasta'liq xatida yozilgan. 8558 inventar raqamli manbadan boshqa barchasi majmua shaklidir. 8558 va 6528/II inventar

raqamli manbalar nasx xatida, qolganlari esa nasta'liq xatida yozilgan. 4144/II inventar raqamli manba eng to'lig'I bo'lib, 62 varag'dan iborat. 6452/X inventar raqamli manba esa eng kam hajmlisi bo'lib, 5 varag'dan iborat.

10. "Miroh ul-Arvoh" asariga yozilgan sharhlar.

Ushbu asarning behta sharhi fondida saqlanmoqda. Ulardan uchta Ahmad Disqiz qalamiga mansub. Yozilgan yili, kotiblari va ko'chirilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. Har uchchalasi ham yakka asarlardir. 11965 inventar raqamli manba nasta'liq xatida yozilgan, 81 varag'dan iborat. 10485 inventar raqamlisi esa nasx xatida yozilgan, 203 varag'dan iborat. 10245 inventar raqamlisi ham nasx xatida yozilgan, 124 varag'dan iborat.

4902 inventar raqamli sharh esa Hasan posho ibn Alouddin qalamiga mansub bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan, 109 varag'dan iborat.

Qolgan bitta sharhning muallifi noma'lum.

Fondida ja'mi o'n bitta kam nusxali asarlar mavjud.

1. Alouddin Ahmad al-Xo'jandiy qalamiga mansub "Al-qisoriy fi-t-tasrif" asari bo'lib, uning ikki nusxasi mavjud.

13202/II inventar raqamli manba bo'lib, kotib Rashid as-Samarqandiy hijriy 730 yilda suls xatida ko'chirgan. 5 varag'dan iborat, oxiri yo'q.

10841/XX inventar raqamli manba bo'lib, hijriy 1267 yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan. 5 varag'dan iborat.

2. Yuqoridagi asarning Ahmad ibn Ali Sijistoni qalamiga mansub sharhi 8410 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Asar hijriy IX asrga oid. Asar kotib Abdurazzoq al-Marg'inoniy tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. 56 varag'dan iborat. Ko'chirilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q.

3. Abduljalil ibn Mahmud ibn Muhammad Tofiy qalamiga mansub "Jame' ul-masoil fi-t-tasrif" asari fondida 9223/I inventar raqami ostida bir nusxada saqlanmoqda. Hijriy 1253 yili nasta'liq xatida ko'chirilgan. Kotibi esa noma'lum.

4. Kam nusxali asarlardan yana biri "Qovaid ul-e'lol" asari bo'lib muallifi noma'lum. Fondida asarning to'rt nusxasi mavjud. Ular 6881/IV, 11599/V, 10380/IX va 545/XI inventar raqamlari ostida saqlanmoqda. Barcha nusxalar nasta'liq xatida ko'chirilgan va kam hajmli asarlardir. 2,3 va 4 varag'dan iborat.

5. "Risala fi bayani qovaidi-t-tasrif" asarining ham fondida ikki nusxasi mavjud. Asarning muallifi, kotiblari, yozilgan va ko'chirilgan yillari haqida ma'lumotlar yo'q. Har ikkisi ham nasta'liq xatida yozilgan. 10685/III inventar raqamli manba 5, 10629/III inventar raqamlisi esa 3 varag'dan iborat.

6. Abu Bakr Muhammad ibn Umar ibn Abdulaziz al-Qurtubiy qalamiga mansub “Al afa’al va tasrifuha” asari fondida bir nusxada 9642 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Asarning kotibi, yozilgan va ko’chirilgan yillari haqida ma’lumotlar yo’q. Nasta’liq xatida yozilgan. 152 varag’dan iborat.

7. Muhammad Ismatulloh ibn Mahmud Ne’matulloh Buxoriy qalamiga mansub “Sharhi tasarrufot” asarining bir nusxasi mavjud bo’lib, u kotib Mavlo Soqiy tomonidan hijriy 1081 yili ko’chirilgan. Asar 7572/XXII inventar raqami ostida saqlanmoqda. 30 varag’dan iborat.

8. 9905/I inventar raqamli manba “Tag’oyyurot va tasrifat ul-af’al ” deb nomlanib, asarning kotibi, yozilgan va ko’chirilgan yillari haqida ma’lumotlar yo’q. Asar 15 varag’dan iborat bo’lib, nasta’liq xatida yozilgan. Asar arab va fors tillarida yozilgan.

9. Mir Sayid Sharif qalamiga mansub “At-ta’lilat fi-s-sarf ” asari 10025 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Asar hijriy 1293, milodiy 1876 yili nasx xatida ko’chirilgan. Asarning kotibi noma’lum bo’lib, 85 varag’dan iborat. Asar arab va fors tillarida yozilgan.

10. Sulton xo’ja qalamiga mansub “Hasr ul-abvab fi-s-sarf” asari 3852/VI inventar raqami ostida saqlanmoqda. Hijriy 1287 yil nasta’liq xatida ko’chirilgan. 3 varag’dan iborat.

11. “Sharhi tasrif” asarining ikki nusxasi mavjud bo’lib, muallifi noma’lum. 4166/IV inventar raqamli manba hijriy 1268 yili nasta’liq xatida ko’chirilgan. 69 varag’dan iborat.

3056/III inventar raqamlisi esa Buxoroda hijriy 950 yilda yozilgan va 955 yilda ko’chirilgan. Kotibi noma’lum. 30 varag’dan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. T.: 2011 yil.
2. A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. T.: 2000 yil.
3. O’zR FA SHI qo’lyozmalar fondidagi sohaga oid kartchalar.
4. www.ziynet.uz
5. www.arabic.uz